

AKSIZ SOLIG'I MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

O'tayev Suyun Do'sqobil o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi sirtqi ta'lim

Iqtisodiyot kafedrası 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10899949>

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish, aksiz soligining hisobi va uning mamlakat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyatiga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, aksiz soligi stavkalarining o'zgarishi va aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishlari yoritiladi.

Kalit sozlar: aksiz soligi, davlat budjeti daromadlari, soliq stavkalari, soliq kodeksi, aksiz soligi tolovchilari.

IMPROVEMENT OF EXCISE TAX ADMINISTRATION

Abstract. This article examines issues related to the improvement of excise tax administration, the calculation of excise tax and its importance in the formation of the country's budget. Also, changes in excise tax rates and directions for improvement of excise tax administration will be covered.

Key words: excise tax, state budget revenues, tax rates, tax code, excise tax payers.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с совершенствованием администрирования акцизного налога, расчетом акцизного налога и его значением в формировании бюджета страны. Также будут освещены изменения ставок акцизного налога и направления совершенствования администрирования акцизного налога.

Ключевые слова: акцизный налог, доходы государственного бюджета, налоговые ставки, Налоговый кодекс, плательщики акцизного налога.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi.

Bilvosita soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og'irligini haqiqatan ham budjetga to'lovchilari tovar ish, xizmatni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Bilvosita soliqlar, xususan Aksiz solig'i soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastlab soliq tizimi vujudga kelishida to'g'ri, ya'ni bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so'ng bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig'i paydo bo'ldi va amaliyotga kiritildi.

Aksiz – lotincha “accidere” so'zidan olingan bo'lib kesish degan ma'noni anglatadi.

Adabiyotlarda ushbu soliq turi asosan hashamat tovarlari shuningdek inson salomatligi hamda atrof muhit uchun zararli bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan.

Aksiz solig'i tovar narxiga qo'shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo'yilgan qo'shimcha narx mahsulot ishlab

chiqarishning unumdorligini yoki biron bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki aksiz tvarlarini ishlab chiqarish va realizasiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bilvosita soliqlar xususan, aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Aksizni keng va tor ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda bu tushuncha ostida, alohida tovarlarga Aksiz solig'i yoki individual Aksiz solig'i tushuniladi. Keng ma'noda esa aksiz tushunchasi individual Aksiz solig'ini ham, universal Aksiz solig'ini ham qamrab oladi. Ular o'rtasidagi farqi, uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog'liq.

Bizga ma'lumki, tarixda dastlab individual Aksiz solig'i paydo bo'lgan.

Ular kiritish va undirish tartibi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, soliqning bu turi alohida tovarlardan qat'iy belgilangan stavkalar asosida undirilgan. Universal

Aksiz solig'i esa keng qamrovga ega bo'lib, barcha holatlarda tovarlar, xizmatlar, ishlar realizasiyasi aylanmasi uni undirish obyekti bo'lib hisoblanadi. Universal Aksiz solig'iga oborotdan soliqlar, sotishdan olingan soliqlar, qo'shilgan qiymat soliqlari kiritilgan.

Individual Aksiz solig'i chegaralangan ma'lum tovarlarga belgilangan va narxga kiritilib iste'molchi tomonidan to'lanadi.

Hozirgi vaqtda soliq tizimida aksiz solig'i davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishi uchun muhim rol o'ynaydi. Alohida tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ulardan budjetni to'ldirishning qo'shimcha manbai sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog'liqdir. Ular jumlasiga:

1. Atrof muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlar iste'molini cheklash ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste'moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj.

3. Davlat monopoliyasida bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va realizasiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj kabilarni kiritish mumkin.

Soliq islohotlarini o'tkazishda soliqqa tortishning an'anaviy tamoyillari o'zgaraydi. Lekin amaldagi soliq tizimining iqtisodiy-huquqiy tamoyillarini takomillashtirib boriladi. Bunda soliq munosabatlarining tamoyillari o'tkazilgan har bir islohotlar natijasida sayqallanadi va mohiyati, mazmuni maqsadlari borgan sari nazariy tamoyillar darajasiga yaqinlashib boradi. Zero har bir davrning o'ziga xos soliq tizimining adolatlilik, samaradorlik va soddalashtirilgan namunasi mavjud. Ana shu ko'rsatkichlar muayyan davrga moslashtirilgan soliq islohotlari o'tkazilishi natijasida an'anaviy mezonlarga yaqinlashib boradi.

Aksiz solig'i bilvosita soliqqa tortishning eng qadimgi shaklidir; ular haqida birinchi eslatma Qadimgi Rim davriga tegishli. O'sha paytda ham tuz va boshqa ba'zi iste'mol tovarlariga aksiz solig'i mavjud edi. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan soliqqa tortishning aksiz shakli ustunlik qiladi, garchi keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri daromad va mulk solig'i rivojlanishi bilan aksizlar o'z mavqeini biroz yo'qotdi. Biroq, hozirgi kunga qadar aksiz solig'i deyarli barcha mamlakatlarning soliq tizimlarida qo'llaniladi va davlatning moliyaviy resurslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarixan aksiz solig'i ob'ektlari

birinchi navbatda ommaviy talab ob'ektlari bo'lib, bu soliqlarning yuqori fiskal ahamiyatini oldindan belgilab beradi.

Egri soliqlar sirasiga mansubligi jihatidan, aksiz solig'ining davlat budjetidagi ulushi qo'shilgan qiymat soligidan ikki baravar kamni tashkil qiladi. Buning o'ziga yarasha obyektiv sabablari mavjud, eng muhim sabablaridan biri sifatida, aksariyat yuridik shaxslar aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanmasligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Shunga qaramasdan, mamlakatimiz budjetining daromad manbasi sifatida aksiz solig'i bugungi kunga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda salmoqli o'rin egallaydi, jumladan, davlat budjetining solikli daromadlari tarkibida uning salmog'ini quyidagi diagrammadan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2018 yildagi "O'zbekiston respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida" gi PQ-4086-sonli qaroriga asosan aksiz osti tovar va xizmatlar tarkibi kengaytirildi.

2019-yil 1-yanvardan boshlab

mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov haqini oyiga 2000 so'mga pasaytirish orqali ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymatidan 15 foiz stavkada mobil aloqa xizmati uchun aksiz solig'i;

polietilen granula bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini bekor qilgan holda 25 foiz miqdoridagi polietilen granulariga aksiz solig'i joriy qilindi.

Bundan tashqari 2019-yil 1-martdan qat'iy belgilangan soliq bilan bir qatorda advalor stavkaning kiritilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan sigaretalarga aksiz solig'ining aralash stavkasi kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2021 yildagi "Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5267-sonli qaroriga asosan 2022-yil 1-yanvardan boshlab ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gazga aksiz solig'i solinmasligi belgilab qo'yildi.

Aksiz solig'ini budjet daromadlaridagi ulushi

Tushumlar	2020-yil mlrd.so'm	2021-yil mlrd.so'm	2022-yil mlrd.so'm	2023-yil mlrd.so'm
Budjet daromadlari	98 186,1	120 231,7	162 587	183 442,8
Shundan askiz solig'i	6 461,2	9 439,3	11 687,8	13 988,1
Aksiz solig'ini budjet daromadlaridagi ulushi foizda	6,5	7,8	7,2	7,6

Aksiz solig'ining asosiy vazifasi mablag' yig'ishdan iborat, ya'ni u fiskal funksiyani to'liq bajaradi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlari rivojlanib borgan sari aksiz solig'i

fiskal funksiya bilan bir qatorda boshqa vazifalarni ham bajara boshlaydi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan aksiz solig'iga tayanadi. Davlat aksiz solig'i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak aksiz solig'i davlat daromadlarini shakllantirishda va ayrim tarmoqlarni tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, aksiz solig'i bo'yicha samarali ma'muriyatchilikni ta'minlash turli qiyinchiliklar va samarasizlik tufayli murakkab vazifa hisoblanadi. Aksiz solig'i ma'muriyati tartibga solinadigan tarmoqlarga ta'sirini hisobga olgan holda rioya etilishini nazorat qilish, adolatli yig'ishni ta'minlash va daromadlarni optimallashtirishni o'z ichiga oladi. Aksiz solig'i ma'muriyatchiligida duch keladigan muammolarni o'rganish va takomillashtirish strategiyalarini taklif qilishga qaratilgan. Ushbu muammolarni hal qilish orqali hukumatlar soliq yig'ish mexanizmlarini yaxshilashlari va maqsadli tarmoqlar uchun yaxshi tartibga solish natijalariga erishishdan iborat.

Aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish asosida bir nechta xulosalar chiqarish mumkin: Aksiz solig'ini ma'muriyatchiligidagi asosiy muammolardan biri ham soliq to'lovchilar, ham soliq organlari uchun tartiblarning murakkabligi hisoblanadi. Jarayonlar va talablarni soddalashtirish muvofiqlikni oshirishga va ma'muriy yukni kamaytirishga olib keladi. Monitoring va ijro mexanizmlarini kuchaytirish soliq to'lashdan bo'yin tovlash va aksiz to'lanadigan tovarlarning noqonuniy savdosini cheklashga yordam beradi. Ilg'or texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilidan foydalanish soliq ma'muriyatchiligini yaxshilash va daromadlarni yig'ishni oshirish imkonini beradi. Soliq qonunlari va qoidalaridagi noaniqliklar soliq to'lovchilar uchun chalkashliklarni keltirib chiqarishi va nizolarga olib keladi.

REFERENCES

1. Malikov T.S., Jalilov P.T. Budget soliq siyosati: O'quv qo'llanma. T.: Akademnashr, 2011.
2. Jo'rayev A, Safarov G., Meyliyev O. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
3. Vahobov A, Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi. 2020.